



Ismatova O'g'loy Xamidovona

Samarqand viloyati Samarqand tumani Mirishkor MFY shoirasi

OTA

Dunyoda eng baxtli insonman o'zim
Hech qachon nam ko'rmaydi ko'zim
Ont ichib aytaman mening chin
so'zim

Otamning borligi mening bir baxtim

Oilamizning asl qalqoni

Tomirimda oqadi qoni

Biz uchun hattoki ayamas joni

Otamning borligi mening bir baxtim

Onamning doim siz maslakdoshi

Onam bo'yin bo'lsa siz uning boshi

Ota-ona farzandining ikki ko'z qoshi

Otamning borligi mening bir baxtim

Baxtimizga doim bo'ling sog'-omon

Sizsiz rangimiz bo'ladi somon

Otasiz yashamoq juda ham yomon

Otamning borligi mening bir baxtim

Otasi bor inson dunyoda eng boy

Biz uchun hattoki kechasiz siz loy

Istasak osmondan olib berolasiz oy

Sizni yaxshi ko'radi qizalog'iz

O'g'iloy

SEVMOQ SEVILMOQ

Shogird ustoziga berdi bir savol

Sevmoq go'zaldurmi?Yoki sevilmuq?

Ustoz shogirdiga jim turgach dedi

Kuymoq yaxshidurmi,yoki kuydirmoq

Shogird hayron bo'lib o'ylanib qoldi

Savolimga savol berdingiz nega

O'ziz ayting ustoz osondir kimga

Sevgan olov kabi kuyib yonadi

Sevilgan bu olovdan doim tonadi

Gar ikkisi bir-birin qilsa ixtiyor

Ikkisi ham chekadi birdayin ozor

Lek sevgiga sodiqlik har kimga emas

Sadoqat har kimning qo'lidan kelmas

Sevganni dardini sevmagan bilmas

Uning azoblarini ko'zga ham ilmas

Sevgida yonish bor, sevgida kuyish



Hattoki ba'zida hayotdan to'yish
Rashk olovida tinimsiz yonish
Qizg'onib sevganini doimo koyish
Go'zal kunlari ham bordir aslida
Sevgi yo'q deysan kimning naslida
Bizlarda hozir sevilmoq asri
Sabr bilan bino bo'lar sevgining qasri
Har kimni jufti bilan yaratdi Alloh
Kim qanday sevlashiga o'zidur guvoh
Allohning o'zi bizlarga panoh
Chin sevgiga loyiq aslida Alloh

HOTIRA

Chala yod olganman shuncha
she'rlarni
Hafa qilgandurman ijodkorlarni
Iltimos kechiring sizlar ham meni
Bahona qilib aytay men neni

Oldingizda meni katta aybim bor
Hamid Olimjonga Zulfiyadur yor
Said Ahmad sevar Saidaxonni
Unutish mumkinmas shuncha
insonni

Muhammad Yusufning o'tkir qalami
Abdulla Qodiriyning bordir alami
Navoiy bobomiz tillarda doston

Barchangiz yashaysiz qalblarda
hamon
Sheroziy 20yil qildi sayohat
Muqimiy xayotida topmadi rohat
Avaz O'tar umri o'tdi qiynoqda
Bobur ijod qildi yurtidan yiroqda.

Har bir ijodkorning nomin olsak yod
Ruhlarin aylagan bo'lamiz obod
Har birining umri o'ziga xosdir
Abadiy qolmoqlik ularga mosdir.

TUSHUMDA KO'RAYIN

Tushimda Habibimiz ko'ray iltimos
U inson mo'minlar ichida olmos
Ruhim ham, qalbim ham ko'rmoqqa
shaydo
Allohim tushimda qilgin sen paydo

Habibimiz kechiring bizdek
ummatni
Nahotki bilmadik shuncha himmatni
Yuragimda sevgim siz un cheksiz
Xizmatigiz qilolmadim kechiring
essiz.

Sizni bir bor ko'rmoqlik armon
Aytgan so'zlaringiz bizlarga darmon
Siz tufayli bo'ldik musulmon
Gunohlardan saqladiz omon



Islom bog'in gullatgan bog'bon
Allohga biz keltirdik imon
Har birimiz dunyoga mehmon
Rasululloh bu qanday zamon?

Nabiyulloh sizni sog'indim
So'zlaringiz anglab biroz ovundim
Qani edi sizni ko'rsam bir bora
Yuragim tinchilanar edimi zora